

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA DILRABO MURODILLAYEVNA

**O‘SMIR QIZLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Mo'minova Dilrabo Murodillayevna

O'smir qizlarda deviant xulq shakllanishining psixologik
xususiyatlari.....3

Муминова Дилрабо Муродиллаевна

Психологические особенности формирования девиантного поведения у
девочек-подростков.....21

Muminova Dilrabo Murodillaevna

Psychological characteristics of the formation of deviant behavior in teenage
girls.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA DILRABO MURODILLAYEVNA

**O‘SMIR QIZLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P290 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishanova Zamira Taskarayevna
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarov Baxriddin Mingboyevich
psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov Obid Safarovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32); faks: (+99871) 276-76-51;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

N.B.Atabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori,
professor

N.G‘.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli yosh davrlariga xos deviant xulqning psixoprofilaktikasi va korreksiyasi xususidagi muammolarga e'tibor ortib bormoqda. So'nggi statistika shuni ko'rsatadiki, «Jahon bo'yicha 700 000dan ortiq o'smirlar uydan qochgan, ularning 60 % qizlardir»¹. Balki bu o'sish qizlar ishtirokidagi voyaga yetmaganlarga oid adliya ishlarini ko'rib chiqish va hujjatlarni rasmiylashtirishdagi o'zgarishlarni aks ettiradi, lekin bu o'sish jinoyat sodir etayotgan qizlarning ko'proq sonini ko'rsatishi ham mumkin. Biroq, tarixan huquqbuzarlik xavfi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarning aksariyati o'smir o'g'il bolalarda o'tkazilgan, chunki o'g'il bolalarning voyaga yetmaganlar adliya tizimi bilan aloqa qilishlari ko'proq. Garchi o'g'il bolalar o'rtasida huquqbuzarlik bilan bog'liq xavf omillari haqidagi bilim kelajakdagi faoliyatning asosiy bashorat qiluvchilarini aniqlash va tegishli profilaktika va aralashuv xizmatlarini ko'rsatishda yordam bergan bo'lsa-da, shunga o'xshash xavf omillari jinslar bo'ylab mavjudligi va o'g'il bolalar uchun mo'ljallangan profilaktika va aralashuv dasturlari qizlar uchun umumlashtiriladimi yoki yo'qmi noma'lum. Bu borada shaxs shakllanishidagi qiyin davrlardan biri bo'lgan o'smir qizlarda deviant xulq shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, uning obektiv va subektiv omillarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida o'smir qizlarda deviant xulq shakllanishining psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor berilib, voyaga yetmagan qizlar orasida xulq og'ishini oldini olish va ular xulq-atvorida kelib chiqayotgan turli salbiy illatlarning psixologik sabablarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, oilaviy tarbiya uslubining voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta'siri, shaxsda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni erta psixodiagnostika qilish orqali korreksiyalashni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli ko'rinishdagi ziddiyatlar natijasida xulq og'ishining yuzaga kelishi, ijtimoiylashuv maskanlarida bolaga nisbatan e'tibor, mehr va iliq tuyg'ularning tanqisligi, ularda qahr, g'azab ustuvorligiga olib keluvchi omillarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda o'smir qizlarning zararli odatlarga berilishini oldini olish, ularni ma'naviy rivojlanishi hamda turli ta'sirlardan himoya qilishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Inson qadrini yuksaltirish orqali tegishli yo'nalishlar bo'yicha mavzuli ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va ularning natijalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining

¹ https://studme.org/120215/psihologiya/problema_podrostkovyh_deviatsiy#google_vignette

birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish»² muhim vazifalar etib belgilab berilganligi jamiyatimiz a‘zolari bo‘lgan yoshlar masalalarini ilmiy o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ–837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 2-fevraldagi PF-3525-son «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son «O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida», 2021-yil 4-oktyabrdagi PQ-5255-son «Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan S.Yu.Ahrorov, M.X.Axmedova, K.Ya.Baxronova, Z.F.Kamaletdinova, N.G.Kamilova, Sh.Mustafaeva, G‘.A.Normurodov, F.P.Rajabova, T.G.Suleymanova, G.K.To‘laganova, B.M.Umarov, E.Sh.Usmanov, A.Sh.Urinov, U.D.Qodirov, O.S.Qodirov, E.A.Quljanov va boshqalar tomonidan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolarini tadqiq etib, jinoyat motivi, yoshlarda xulq og‘ishi, jazoni o‘tash joylarida psixologik xizmat, psixologik ekspertiza o‘tkazish, delikvent va deviant xulq shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga oid ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan I.K.Bashkatov, L.I.Bojovich, G.G.Bochkareva, N.S.Gileva, E.V.Demidova, O.B.Dolginova, E.V.Zmanovskaya, A.V.Zavalyak, K.E.Igoshev, P.A.Kabanov S.V.Knijnikova, V.T.Kondrashenko, N.D.Levitov, O.A.Ofèrkina, A.N.Pastushenya, E.L.Radnaeva, F.Rays, I.V.Ramanova, A.A.Rean, Ye.M.Rodionova, N.A.Sapronova, V.Chesnokova M.Z.Shogenov va boshqalar tomonidan oilada zo‘ravonlik ishlatish, jinoiy xulq deviantlikka moyillik, submadaniyat, voyaga yetmaganlarning jinoyat profilaktikasi masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

Xorij olimlaridan A.Bandura, H.J.Buhl, B.S.Gekeler, E.H.Erikson, E. Fromm, G. Kayzer, J.Marcia, A.Merari, M. Mid, B.A.Mirenskiy, G.Samaranayake, T.A.Strentz, D.Richardson, J.Turek, B.Xolist, G.Shnayder, A.S.Waterman va boshqalar tomonidan jinoiy xulqqa ta'sir ko'rsatuvchi omillar ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Psixolog kadrlar tayyorlash, samaradorligini oshirish va psixologik xizmat ko'rsatish, samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan (2020-2024 y.y).

Tadqiqot maqsadi: o'smirlik davridagi qizlarda namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda uni oldini olish va susaytirish bo'yicha psixoprofilaktik, psixokorreksion chora-tadbirlarni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o'smir qizlarda deviant xulq-atvor namoyon bo'lish darajasini aniqlash;
ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning mavjud emasligi ta'sirida farzandda deviantlik ortishini asoslash;

katta va kichik o'smir qizlarda deviantlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

o'smir qizlarda deviantlikni susaytirish va profilaktika qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

Tadqiqot obekti sifatida deviant xulq-atvorli o'smir qizlar tanlangan bo'lib, Namangan viloyati voyaga yetmaganlarga ijtimoiy himoya ko'rsatish markazi tarbiyalanuvchilaridan 28 nafar, Andijon viloyati, Namangan viloyati, Farg'ona viloyati umumiy o'rta maktablarida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ro'yxatda turuvchi 6-8 sinf qizlaridan 130 nafar, ularning ota-onalari - 100 nafar, jami 258 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqot predmetini o'smir qizlarda namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda E.V.Leus, A.G.Solov'evning «Deviant xulq-atvorga moyillik», Shmishekning «Xarakter aksentuatsiyasini aniqlash», Bass-Darkining «Agressivlik shaxs so'rovnomasi», F.K.Rodjers, R.Daymond hamkorligida ishlab chiqilgan «Ijtimoiy psixologik moslashganlik IPM», «Ota-ona ustanovkalari va reaksiyalari o'lchovi PARY» kabi so'rovnomalardan foydalanildi, olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistik metodlaridan Styudent t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarbiyasi qiyinlikning yuksak shakli o'smir qizlar orasida kam bo'lsa-da uchrashi asosida, ularda asosan deviantlikning quyi darajasi ko'proq hamda uning namoyon bo'lishida kichik va katta o'smir qizlarda ahamiyatli farqlar mavjud emasligi aniqlangan;

ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning yetishmasligi tufayli farzandlarda agressivlik ortishi, jumladan ota-onalarning qizi bilan muloqotda qarovsizlik va ta'zyiq, o'smirni kichik omadsiz ekanini ta'kidlash o'z navbatida deviantlikni ham kuchaytirishi asoslangan;

kichik o‘smir qizlarda shubhalanuvchanlik va o‘z -o‘ziga zarar yetkazish hamda hissiy reaksiyalar orasida manfiy, bilvosita agressiya va tajovuzkorlikka yo‘nalganlik orasida musbat bog‘lanish, katta o‘smirlarda faqat ustuvorlik va addiktiv axloq hamda emotiv tip va delikvent xulq-avtor orasida manfiy aloqadorlik mavjudligi Pirson korrelyatsion mezonida aniqlangan;

o‘smir qizlarning kognitiv, emotsional va konativ sohasiga ta’sir etish orqali deviantlikni susaytirish, profilaktika qilish mumkin ekanligi aniqlovchi va nazorat tajribalari natijalarini differensiallash asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o‘smir qizlardagi deviant xulq diagnostika qilinib, profilaktik hamda korreksion dasturi ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan;

deviant xulqli o‘smirlar bilan faoliyat olib borish yuzasidan psixologlar, pedagoglar, o‘smirlar va ularning ota-onalariga manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

ota-onaning farzandiga munosabati deviantlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy psixologik omil ekanligi ilk bora milliy muhitda tadqiq etilib, mahallalar uchun zarur taklif tavsiyalar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 14» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘smir qizlar deviant xulqining pedagogik-psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlari to‘ldirilgani, unda ko‘rsatilgan muammo hamda uni yechish uchun taklif etilgan psixokorreksion va psixoprofilaktik tushuncha va tasavvurlarni kengaytirishi, olingan ilmiy xulosalardan manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan va qo‘llangan psixologik tashxis vositalari, psixologik trening mashg‘ulotlari tizimidan «Deviantologiya», «Rivojlanish psixologiyasi», «Psixologik xizmat. Psixokorreksiya» fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlash, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda ta’lim muassasalarida psixologik xizmat ko‘rsatish samaradorligini ta’minlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «O‘smirlik davridagi qizlarda namoyon bo‘ladigan deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari» ni o‘rganishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

tarbiyasi qiyinlikning yuksak shakli o‘smir qizlar orasida kam bo‘lsa-da uchrashi asosida, ularda asosan deviantlikning quyi darajasi ko‘proq hamda uning namoyon bo‘lishida kichik va katta o‘smir qizlarda ahamiyatli farqlar mavjud emasligi haqida ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-

ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-297-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-297-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagog-psixologlarning o'smirlik davrida deviantlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirishga qaratilgan amaliy ishlar samaradorligini takomillashtirishga erishilgan;

ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning yetishmasligi tufayli farzandlarda agressivlik ortishi, jumladan ota-onalarning qizi bilan muloqotda qarovsizlik va ta'zyiq, o'smirni kichik omadsiz ekanini ta'kidlash o'z navbatida deviantlikni ham kuchaytirishi asoslanganligi haqidagi ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-297-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-297-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak pedagog-psixolog mutaxassislarni oilada ota-ona-bola munosabatlari psixologiyasiga oid o'quv mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishga erishilgan;

kichik o'smir qizlarda shubhalanuvchanlik va o'z -o'ziga zarar yetkazish hamda hissiy reaksiyalar orasida manfiy, bilvosita agressiya va tajovuzkorlikka yo'nalganlik orasida musbat bog'lanish, katta o'smirlarda faqat ustuvorlik va addiktiv axloq hamda emotiv tip va delikvent xulq-avtor orasida manfiy aloqadorlik mavjudligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-297-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-297-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning joriy etilishi natijasida pedagog-psixologlarning o'smir yoshidagi o'quvchilarda deviantlikni paydo bo'lish shart-sharoitlaridan biri sifatida ota-onaning farzandga demokratik munosabatda bo'lish haqidagi bilimlarini boyitish imkoniyati paydo bo'lgan;

o'smir qizlarning kognitiv, emotsional va konativ sohasiga ta'sir etish orqali deviantlikni susaytirish, profilaktika qilish mumkin ekanligi aniqlovchi va nazorat tajribalari natijalarini differensiallash asosida dalillanganligi haqida ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-297-buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-297-son ma'lumotnomasi). Mazkur modulning joriy etilishi natijasida bo'lajak psixolog kadrlarning «o'smir yoshidagi o'quvchilarda deviantlikni korreksiyalash» borasidagi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» o'quv fani doirasidagi mavzular mazmuni va o'quv uslubiy majmua takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obekti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Deviant xulq-atvor psixologik tadqiqot predmeti sifatida**» deb nomlanib, unda Sharq mutafakkirlarining xotin-qizlar xulq-atvori haqidagi qarashlari, deviant xulq muammosi O'zbekiston psixologlari talqinida, xorij psixologiyasida deviant xulq muammosining o'rganilishi kabi masalalar nazariy taxlil qilingan.

Deviant (jamoatchilikka zid) xulq - bu atrofdagi kishilarning osoyishtaligi va ijtimoiy tartibga rahna soladigan, huquqiy normalarga to'g'ri kelmaydigan xulq. Mazkur xulq ko'rinishi qonunchilik tomonidan taqiqlangan har qanday harakat yoki harakatsizlikni ifodalaydi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda huquqbuzarlik qonun ustivorligini buzuvchi deviant xulq-atvor shakllaridan biri sifatida tavsiflanadi. Nazariy va empirik tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, inson xulq-atvori induvidual psixologik xususiyatlarining psixologik determinantlari uning xulq-atvori noqonuniy yo'nalishini shakllantiradigan: tajovuzkorlik, ziddiyat, impulsivlik, o'zini-o'zi hurmat qilmaslik, tashvish, hissiy yetuklik va begonalashuv kabi omillar bilan bog'liq. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning ko'payishi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi, oila instituti qadr-qimmatining yo'qolishi va o'smirni oilaviy farovonlikdan mahrum bo'lishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O'smir qizlarda deviant xulqning empirik o'rganilishi**» deb nomlanadi. Biz tadqiqotda E.V.Leus, A.G.Solov'evning «Deviant xulq-atvorga moyillik» so'rovnomasini o'tkazish orqali deviant va delinkvent xulqqa moyil o'quvchilar aniqlandi, natijalar quyidagi 1- jadvalda berildi.

1-jadval

O'smir yoshidagi qizlarda xulq og'ishning namoyon bo'lishi (n=158)

O'quvchilar	Deviantlikka moyil o'quvchilar	Delikventlikka moyil o'quvchilar
Soni	138	20
%	87,4	12,6

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, biz tadqiqot o‘tkazgan 158 nafar o‘smirlar orasida 87,4 % deviantlikka moyil, 12,6 % delikventlikka moyil sinaluvchilardir. Ming afsuski, o‘smir qizlar orasida deviantlik va delikventlikka moyillar ham maktablarimizda uchrab turadi.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, Rossiyadagi huquqbuzarliklarning 8 % voyaga yetmaganlar tomonidan amalga oshiriladi. 70 % qonunbuzarliklar 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi aniqlangan.

O‘smir qizlarda deviant xulqqa moyillik ularning yoshga xos xususiyatlari, «tarbiyasi qiyinlik», o‘tish davriga xoslik bilan bog‘liq. O‘smirlik davridagi qizlarda deviantlikka moyillik shakllanishida ham biologik, ham ijtimoiy omillar ta‘sir etadi, biroq ijtimoiy omil har doim yetakchilik qiladi. O‘smirlik davridagi qizlarning o‘ziga, atrofdagilarga, voqea-hodisalarga munosabati, dunyoqarash, irodaviy sifatleri, hissiy holatlari - xavotirlanish, hissiy zo‘riqish va boshqa kechinmalari unda turli antiijtimoiy ehtiyojlarning vujudga kelishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘smir yoshidagi qizlar shaxsidagi mavjud ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatining cheklanganligi o‘rtasida qarama-qarshilik ularda deviantlikka moyillikni vujudga keltiradi. O‘smirlik davrida shakllangan tajovuzkorlik sifatleri, xarakter aksentuatsiyasi tipi va barqaror shaxs xususiyatlari ta‘sirida o‘zini-o‘zi tasdiqlash, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari ham ularni qonun-qoidalarni buzish harakatini sodir etishga undaydi.

Bizning tadqiqotda o‘smir qizlarda deviantlik quyidagicha namoyon bo‘ldi.

2-jadval

O‘smir qizlarda deviantlik darajalarining namoyon bo‘lishi

Darajalar	Yuqori	O‘rta	Quyi
%	28	16,4	55,6

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, 28 % o‘smir qizlarda deviantlikning yuqori darajasi, 16,4 % da o‘rta darajasi va 55,6 % da quyi darajasi namoyon bo‘ldi.

3-jadval

6-sinf va 8-sinf o‘quvchilarida deviant xulq-atvor namoyon bo‘lishidagi tafovutlar (Styudent t-mezoni bo‘yicha) n=158

Metodika shkalalari	M ₁ (6-sinf)	M ₂ (8-sinf)	T
Ijtimoiy xohishga yo‘nalganlik	6,77	6,94	-0,52
Meyo‘r va qoidalarni buzishga moyillik	4,43	4,62	-0,76
Additiv axloqqa moyillik	5,55	5,03	1,51
O‘z-o‘ziga zarar keltiruvchi axloqqa moyillik	7,55	7,79	-0,61
Tajovuzkorlik va zo‘ravonlikka moyillik	8,13	8,73	-1,16
Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish	6,81	6,75	0,14
Delinkvent axloqqa moyillik	5,03	5,23	-0,59

V.I.Kupchenko tadqiqotida ham delinkvent o‘smirlarning uch tipi aniqlangan. Birinchi tip «delikventlar» deb atalib, ularga delikvent xulq-atvorning yuqori darajasi

xos bo‘lib, ularga huquqbuzarlik uchun militsiyadan jarimalar ham kelgan. Ikkinchi guruh «xavf guruhi» deb ataladi, jamaot xavfsizligini qisman buzish, maktab qoidalarini buzishda namoyon bo‘ladi. Uchinchi guruhga delikvent xulq-atvorning quyi darajasi xos bo‘lib, ular qonunga bo‘ysunadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, bu tiplar orasidagi asosiy farq o‘z-o‘zini nazorat qilishning darajalarida namoyon bo‘ladi. Qonunga bo‘ysunuvchi o‘smirlarda o‘z-o‘zini nazorat qilishning yuqori darajasi, delikvent o‘smirlarda o‘rtacha va xavf guruhiga kiruvchi o‘smirlar quyi darajasini namoyon qilishdi.

Kichik va katta o‘smir qizlarda delikventlik qay darajada tafovutlanishini ham aniqlashga harakat qildik. Metodika 6-sinf va 8-sinf o‘quvchilarida o‘tkazilib, ular orasidagi tafovut St’yudent mezoni orqali tekshirildi va natijalar yuqoridagi 3-jadvalda umumlashtirildi.

Barcha shkalalar bo‘yicha farqlar ahamiyatsiz, bu degani katta va kichik o‘smirlarda deviant xulq-atvor namoyon bo‘lishi bir-biridan tubdan farq qilmaydi, natijalar o‘xshash degan xulosa chiqarish mumkin.

Biz ota-ona ustanovkasi farzandda deviant xulq-atvor shakllanishiga qay darajada ta’sir qilishi mumkinligini aniqlashni ham tadqiqotda vazifa sifatida belgilagan edik. Buning uchun «Ota-ona ustanovkalari va reaksiyalari o‘lchovi» (PARY) metodikasi va deviant xulq-atvor metodikasi shkalalari Pirson mezoni asosida o‘zaro korrelyatsiya qilindi, natijalar 4-jadvalda aks ettirildi.

4-jadval

8-sinf o‘quvchilarida deviant xulq-atvorning ota-onalik ustanovkalari korrelyatsion aloqadorligi (Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha) (n=98)

Metodika shkalalari	Deviant xulq							
	Faktorlar	Ijt.xoh.yo‘n	Meyor.va.q	Additiv axl.	O‘z.- o‘z.zar	Tajovuzkor	Hissiy reaks	Delinkvent
Ota ona ustanovkalari va reaksiyalari o‘lchovi	I-Faktor	-0,05	0,07	0,12	0,19	-0,02	-0,07	0,02
	II- Faktor	-0,20	0,01	0,20	0,10	0,27**	0,07	0,06
	III-Faktor	-0,009	-0,05	-0,10	-0,02	-0,09	-0,04	-0,08

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, faqat tajovuzkorlik va II- faktor orasida ahamiyatli bog‘lanish aniqlangan ($r=0,27$; $p\leq 0,01$). Ota-ona ustanovkasida demokratik munosabatlarning yo‘qligi farzandda agressivlikni orttiradi. Bunda ota-onalarning qizi bilan muloqotda tenglikdan voz kechishi, bolaga o‘z fikrini aytish imkoniyatini bermaslik, faolligini rag‘batlantirmaslik, ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘rtoqlarcha munosabatdan voz kechishlar farzandda o‘z navbatida agressivlikni ham kuchaytiradi. Farzandga o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini berish esa unda agressivlikni pasaytiradi. Boshqa shkalalar orasida ahamiyatli bog‘lanishlar aniqlanmadi.

Ota-onalar nazoratining ekstremal shakllari, haddan tashqari himoyalanihdan tortib, o‘smirning e’tiborsiz qoladigan holatigacha, I.Yu.Kulagina, bola-ota-ona

munosabatlarida qiyinchiliklarni va oilada nizolarni keltirib chiqaradi, deb ta'kidlaydi. Ota-onalarning befarqligi va shavqatsizligi, o'smirlarga qo'yiladigan talablar va hissiy sovuqlik oila a'zolari o'rtasidagi ishonchni yo'qotishiga olib keladi va muloqotda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga, o'smirlarning sevgiga bo'lgan ehtiyoji kuchli bo'lib, shafqatsizlik va hissiy yetuklikni namoyon qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O'smir qizlarda deviant xulq psixokorreksiyasi va psixoprofilaktikasi**» deb nomlanadi. Tadqiqotchilar tomonidan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar bir necha guruhga ajratilgan. Ular: biologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-etik omillardir. O'smirlar deviant xulq-atvorining sabablari sifatida ularning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan, xarakter aksentuatsiyasi, o'smirlar inqirozi, shaxs shakllanishida guruhli muloqotning salbiy ta'siri, ijtimoiy-pedagogik sabablar va maktabga moslasha olmaslikni kiritish mumkin.

Biz ham tadqiqotda o'smir qizlarning agressivligi va deviant xulq-atvor orasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlashni vazifa sifatida belgilagan edik. Buning uchun Pirson mezonidan foydalandik va natijalar quyidagi 5-jadvalda umumlashtirildi.

5-jadval

6-sinf o'quvchilarida deviant xulq-atvor bilan agressivlikning o'zaro korrelyatsion aloqadorligi, Pirson mezoni bo'yicha, (n=60)

Deviant xulq							
Shkalalar	Ijt.xoh.yo 'n	Meyor. va.qoi.	Addik tiv.axl	O'z.o'z.z ar	Tajovu zkor.	Hissiy reaks.	Delinkv ent
Jis.tajov.	-0,05	0,06	0,17	0,09	0,19	0,01	0,10
Verb.tajov.	-0,07	0,0005	0,07	0,10	0,16	0,03	0,04
Bilvosita.taj.	-0,09	0,03	0,12	0,11	0,20**	0,12	0,06
Negativizm	-0,02	-0,03	0,08	0,02	0,09	0,04	-0,008
Tajanglik	-0,06	-0,07	-0,03	0,12	0,03	0,06	-0,09
Shubhalanuvch.	0,2**	-0,08	-0,15	-0,20**	-0,11	-0,22**	-0,11
Xafagarch.	0,06	0,10	0,07	0,003	0,03	0,07	0,09
Aybdorlik	-0,02	-0,02	-0,08	0,05	0,13	0,08	0,03

Bilvosita tajovuzkorlik bilan tajovuzkorlik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,20$; $p \leq 0,01$). Bilvosita tajovuz boshqa odamga bilvosita yo'naltirilgan yoki hech kimga yo'naltirilmagan tajovuzdir. O'smir qizlarda bilvosita tajovuz ortgan sari atrofdagilar uning huquqlarini hurmat qilishlarini talab qiladi. Shuningdek, ular odamga spirtli ichimlik va tamakining zararli ta'siri yo'q deb o'ylaydi.

Shubhalanuvchanlik va o'z-o'ziga zarar yetkazish orasida manfiy aloqadorlik aniqlandi ($r=-0,20$; $p \leq 0,01$). O'smir qizlarda shubhalanuvchanlik ortgani sayin o'z-o'ziga zarar yetkazish kamayadi, yoki aksincha o'z-o'ziga zarar yetkazish ortgani sayin shubhalanuvchanlik kamayadi. Shubhalanuvchanlik - ehtiyotkorlik va boshqalarga ishonchsizlikdan tortib, boshqalarning yomon niyatda ekanligiga qattiq ishonishdir.

Bunday o‘smir qizlar detektiv asar o‘qiganida, ko‘pincha jinoyatchining ta‘qibdan qochib ketishini istaydi, ba’zida odobsiz hazil eshitganida o‘zini kulgudan to‘xtata olmaydi, ularga me‘yorida ichuvchi va xushchaqchaqlik qiluvchi davrada bo‘lish yoqadi.

Shubhalanuvchanlik va hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi orasida manfiy aloqadorlik aniqlandi ($r=-0,22$; $p\leq 0,01$). Shubhalanuvchanlik ortishi hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilishning kamayishiga olib keladi, aksincha hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilishning ortishi shubhalanuvchanlikning kamayishiga olib keladi. Bunday o‘smirlar lazzat olish uchun ba’zi qoidalar va ta‘qiqalarni buzish mumkin, deb hisoblaydi. Shuningdek, ular g‘azablanganida duch kelgan birinchi buyumni olib, uni sindiradi, doimo atrofdagilar uning huquqlarini hurmat qilishlarini talab qiladi. Boshqa shkalalar orasida ahamiyatli bog‘lanishlar aniqlanmadi.

Shunday qilib, 6-sinf o‘quvchilarida shubhalanuvchanlik va o‘z-o‘ziga zarar yetkazish hamda hissiy reaksiyalar orasida manfiy, bilvosita agressiya va tajovuzkorlikka yo‘nalganlik orasida musbat bog‘lanish aniqlandi.

6-jadval

8-sinf o‘quvchilarida deviant xulq-atvor va ijtimoiy moslashganlik orasidagi korrelyatsion aloqadorligi, Pirson mezoni bo‘yicha, (n=98)

Deviant xulq ko‘rinishlari							
Shkalalar	Ijt.xoh.yo‘	Meyor. va.qoi	Addiktiv axl.	O‘z-o‘z.zar	Tajovu zkor.	Hissiy reaks.	Delinkvent
Ustivorlik	0,07	-0,12	-0,19**	-0,08	-0,09	-0,09	-0,12
Eskapizm	-0,12	-0,02	-0,11	-0,01	0,02	-0,01	-0,12

Tadqiqotda 8-sinf o‘quvchilarida deviant xulq-atvor va ijtimoiy moslashganlik orasidagi korrelyatsion aloqadorlik ham tadqiq etildi, olingan natijalar yuqoridagi 6-jadvalda aks ettirildi. Jadvalda ko‘rinib turganidek, faqat ustivorlik va addiktiv axloq orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($r=-0,19$; $p\leq 0,01$). Addiktiv axloqli o‘smirlarda ustivorlik kam namoyon bo‘ladi. Intellektual sohada, ahloqiy sohada, motivatsion-irodaviy sohada ustivor o‘smirlarda addiktiv axloq qariyb namoyon bo‘lmaydi. Bunday o‘smir qizlarga yaxshi davrada me‘yorida ichgandan keyingi holat yoqadi, og‘ir daqiqalarda tamaki ularni tinchlantiradi. Ularga boshqa odamlarning undan qo‘rqishga majbur qilish oson va ular buni ba’zida vaqtichog‘lik uchun qilishadi. Ular oliy jazoga odilona hukm qilingan jinoyatchini o‘z qo‘llari bilan qatl qilishga ham tayyor. Shuningdek ular, har doim ko‘nglida o‘zgalardan ustun ekanini his etadi. Shuxratparast, omadga, maqtovga befarq emas, o‘zi uchun muhim narsalarda eng yaxshilar qatorida bo‘lishga intiladi, tabiatan yetakchi va boshqalarga ta’sir qila oladi.

Navbatdagi 7-jadvalda 6-sinf o‘quvchilarida deviant xulq-atvor va xarakter aksentuatsiyasi metodikasi shkalalari orasidagi o‘zaro aloqadorliklar aks ettirilgan.

Xarakter aksentuatsiyasining gipertim tipi va me‘yor va qoidalarga yo‘nalganlik orasida musbat bog‘lanish aniqlangan ($r=0,20$; $p\leq 0,05$). O‘smirlarda xarakter

aksentuatsiyasining gipertim tipi ustun bo'lsa, ularda me'yor va qoidalarga yo'nalganlik ham kuchli namoyon bo'ladi. Gipertim tipli o'smirlar - deyarli hamma vaqt juda yaxshi kayfiyatda bo'lishadi, gohi-gohida jahl, tajovuz, ta'sirlanish bilan almashinishi mumkin.

Nafaqat tengdoshlari davrasiga oshiqadi, balki u yerda liderlikka intiladi. Hamma vaqt «hayot qaynayotgan» joyga oshiqadi. Qiziqishlari, reaksiyasi boy va xilma-xil, asosiysi - doimiy xobbisi yo'q. Odatda, o'z kelajagiga, hatto bunga asos yetarli bo'lmasa-da, ishonch bilan qaraydi. Muvaffaqiyatsizliklar keskin affektiv reaksiyaga sabab bo'lishi mumkin, biroq izdan chiqara olmaydi. Ular suhbatda atrofdagilarni uyaltirishi mumkin bo'lgan iboralardan qochishga intiladi. Ularga e'tiroz bildirganlarga portlab ketadi va keskin javob qaytaradi. Me'yor va qoidalarga yo'nalgan o'smirlar ko'pincha agar kimdir ular bilan kelishmasa, o'zini bahsdan to'xtata olmaydi, faqat kutilmagan sharoit va xavf tuyg'usi ularni haqiqatdan o'zini ko'rsatishga imkon beradi.

7-jadval

6-sinf o'quvchilarida deviant xulq-atvor va xarakter aksentuatsiyasi o'rtasidagi a korrelyatsion aloqadorlik K. Pirson mezonini bo'yicha bo'yicha (n=60)

		deviant hulq							Gipertim
		Ijt.xox.yo'	Meyor.va. qoi.	Additiv axl.	O'z- o'z.zar	Tajovuzk or.	Hissiy reaks.	Delinkven t	
Xarakter aksen.	Gipertim	-0,04	0,20**	0,02	0,02	-0,01	-0,03	0,01	1
	Xavotir	0,10	-0,01	-0,04	-0,02	0,01	-0,11	0,07	-0,08
	Distim	-0,08	0,03	0,14	0,08	0,009	0,02	0,09	-0,05
	Rasmiy	-0,10	-0,03	0,05	0,02	0,06	0,13	0,08	-0,12
	Qo'zg'aluv.	0,07	0,17	0,08	0,11	0,11	0,16	0,01	-0,09
	Emotiv	0,13	-0,26***	-0,23**	-0,23**	-0,19	-0,14	-0,22**	-0,32***
	Rigid	-0,11	-0,08	0,05	0,04	-0,01	-0,01	-0,005	-0,16
	Namoyish.	0,02	0,07	0,03	0,03	0,02	-0,06	0,06	-0,11
	Sikloid	-0,12	-0,03	0,07	0,06	0,07	0,09	0,02	-0,14
Ekzaltrl.	-0,05	0,29***	0,09	0,19	0,09	0,13	0,07	-0,05	

Izoh: * - $p \leq 0,10$; ** - $p \leq 0,05$; *** - $p \leq 0,01$.


Emotiv tip va me'yor va qoidalarga yo'nalganlik orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ($r = -0,26$; $p \leq 0,01$). Emotiv tip ustun o'smir qizlar me'yor va qoidalarga kam amal qiladi. Emotiv tipdagi insonlar «yarim gapi» dan ularni tushinib oladigan, ular bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadigan, tanlangan, tor doiradagi odamlar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'ruvchilardir. Me'yor va qoidalarga kam amal qiladigan o'smirlar qator kundalik omadsizliklardan keyin ishni davom ettirishga o'zini majburlashni ko'pincha uddalay olmaydi. Shuningdek, ular, odamlar qachonki yangi, noodatiy tuyg'u va kechinmalarga intilsalar - bu me'yoriy hol deb hisoblaydilar.

Emotiv tip va addiktiv axloq orasida manfiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,23$; $p\leq 0,05$). Emotiv tip ustun o‘smir qizlarda addiktiv axloq kuchsiz namoyon bo‘ladi. Emotiv tipdagi insonlar kelishmovchiliklarga kamdan-kam sababchi bo‘ladilar va bunda passiv ishtirok etadilar, ichlarida kek saqlaydilar. Addiktiv axloqqa yo‘nalgan o‘smir qizlarni odatda, ishni belgilangan muddatda tugatish haqidagi talab qiynaydi, ba’zida o‘ziga-o‘zi azob bergisi keladi. Shuningdek, ular qator kundalik omadsizliklardan keyin ishni davom ettirishga o‘zini majburlashni ko‘pincha uddalay olmaydi. Ularning hayotga munosabati «Yeti marta o‘lchab, bir kes» maqolini ifodalaydi.

Emotiv tip va o‘z-o‘ziga zarar yetkazishga yo‘nalganlik orasida manfiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,23$; $p\leq 0,05$). O‘ziga-o‘zi zarar yetkazishga yo‘nalgan o‘smir qizlarda emotiv tip kuchsiz namoyon bo‘ladi. Ular kuchli og‘riqlarga ham chidamli. Dedektiv asar o‘qiganda, ular ko‘pincha jinoyatchini ta’qibdan qochib ketishini istaydi.

